I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil yanvar-mart oylari uchun Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda –YaHM) hajmi joriy narxlarda 10 988,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 3,2 %ga o‘sdi.

YaHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 109,8 %ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 5,5 %ga yetdi

Yalpi hududiy mahsulot

(2023- yil yanvar-mart holatiga, % taqqoslama narxda)

Ko‘rsatkichlar	*mlrd.so‘m*		*2022- yil nisbatan, % hisobida*
	2022-yil	*2023-yil*	
Yalpi hududiy mahsulot, jami	**9 698,3**	**10 988,8**	**103,2**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	9 295,0	10 632,6	103,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	403,3	356,2	103,5
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**9 295,0**	**10 632,6**	**103,2**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**1 673,5**	**2 001,5**	**103,7**
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**2 887,7**	**3 043,6**	**102,1**
sanoat	2 210,5	2 303,6	101,4
qurilish	677,2	740,0	104,5
Xizmatlar	**4 733,8**	**5 587,5**	**103,7**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	923,6	1 074,2	101,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	670,6	790,9	107,7
boshqa xizmatlari	3 139,6	3 722,4	103,4

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) *– milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.*

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur’atlari YaHM o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining o‘sish sur’ati- 103,7%, (YaHM tarkibidagi ulushi- 18,8%), sanoat- 101,4% (21,7 %), qurilish 104,5% (7,0%), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar- 101,6 % (10,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa- 107,7 % (7,4 %) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar- 103,4 % (35,0 %)ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,8 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,2 %ni tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 18,8 %ni, sanoat tarmog‘i 21,7 %ni, qurilish 7,0 %ni va xizmatlar sohasi 35,0 %ni tashkil qildi.

Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2023-yilning yanvar-mart oylarida 52,5 %ni tashkil etdi va 2022- yil (50,9 %) bilan taqqoslanganda 1,6% punktga ko‘paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi
(yanvar-mart holatiga, jamiga nisbatan foizda)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 10,1 %ni (2022- yil- 9,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,4 %ni (7,2 %), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 35,0%ni (33,8 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(yanvar-mart, jamiga nisbatan, foizda)



Joriy yilning yanvar-mart oylari davomida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 2 757,2 ming so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning (2 483,7 ming so‘m) mos davriga nisbatan 1,1 %ga o‘sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 62,2 %ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %

2023-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 62,2 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida 59,9 %)ni tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMni shakllantirishda Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 5,5 %ni tashkil etdi.

YaIM da Farg‘ona viloyatining ulushi, *foizda*



Yalpi ichki (hududiy) mahsulot

yanvar–mart holatiga

Hududlar	*YaHM mlrd. so‘m*			*Aholi jon boshiga, ming so‘m*		
	2022- yil	*2023 - yil*	*%*	*2022- yil*	*2023- yil*	*%*
O‘zbekiston Respublikasi	**166 985,0**	**198 483,5**	**105,5**	**4 723,4**	**5 496,4**	**103,3**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5 728,9	6 137,9	97,1	2 934,7	3 101,5	95,8
Andijon	8 121,2	9 356,9	102,1	2 490,5	2 809,6	100,0
Buxoro	6 915,7	8 619,0	104,0	3 492,8	4 281,2	102,3
Jizzax	4 213,3	5 258,6	103,0	2 912,0	3 554,8	100,7
Qashqadaryo	8 268,2	9 892,2	103,2	2 420,8	2 833,9	101,0
Navoiy	14 632,6	15 631,3	101,7	14 120,1	14 774,3	99,7
Namangan	6 513,0	7 843,2	105,4	2 216,9	2 610,0	103,1
Samarqand	10 533,1	12 419,1	103,6	2 607,0	3 008,4	101,4
Surxondaryo	5 312,4	6 544,2	104,2	1 931,6	2 325,4	101,8
Sirdaryo	3 053,7	3 801,9	103,7	3 467,0	4 230,0	101,6
Toshkent v.	19 090,8	20 746,4	101,5	6 478,5	6 914,8	99,7
Farg‘ona	**9 698,3**	**10 988,8**	**103,2**	**2 483,7**	**2 757,2**	**101,1**
Xorazm	5 343,3	6 460,6	104,4	2 772,3	3 293,6	102,6
Toshkent sh.	30 605,0	37 291,3	105,3	10 654,5	12 567,4	102,0